

**IMOM AL-BUXORIYNING ILMIY MA’NAVIY MEROsi
SCIENTIFIC AND SPIRITUAL HERITAGE OF IMAM AL-BUKHARI
НАУЧНОЕ И ДУХОВНОЕ НАСЛЕДИЕ ИМАМА АЛЬ-БУХАРИ**

Ilmiy rahbar: X.U. Samatov

Fazliddinov Akbarali Yaxyo o‘g‘li

Toshkent Axborot Texnologiyalari universiteti

Samarqand filiali Telekommunikatsiya texnologiyalari

va kasb ta’limi fakulteti TTKT 23-06 guruh talabasi

e-mail: fazliddinovakbarali9@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada buyuk hadisshunos olim Imom al-Buxoriy hayoti va ijodida bo‘lgan voqealar va hodisalarni tadbiq qilamiz. Imom al-Buxoriyning hayoti, ilmiy merosini o‘rganish va uni keng targ‘ib qilish, xalqimizni ma’naviyatimizning mustahkam ildizlaridan biri bo‘lgan diniy qadriyatlar bilan kengroq, chuqurroq tanishtirish ularning keng omma tomonidan sog‘lom idrok etishiga yordamlashish bizning asosiy vazifamizdir.

Kalit so’zlar: Imom al-Buxoriy, Buxoro, hadis, At-Termizi.

Hadis ilmining rivojida oltin davr hisoblangan hijriy uchinchi (milodiy to‘qqizinchi) asrda hadisshunoslikda katta muvaffaqiyatlar qo‘lga kiritilgan. Chunonchi, butun islam dunyosidagi eng nufuzli manbalar deb tan olingan oltita ishonchli hadislar to‘plamining (as-sihoh as-sitta) mualliflari yashab ijod qilganlar. Yana shunisi diqqatga sazovorki, mazkur olti muhaddisning deyarli hammasi Markaziy osiyolik bo‘lib, ular: Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy, Imom Muslim ibn al-Hajjoj, Abu Iso Muhammad ibn Iso at Termiziy, Imom Abu Dovud Sulaymon Sijistoniy, Imom Ahmad An-Nasoiy, Imom Abu Abdulloh Muhammad ibn Yazib ibn Mojja kabi siymolardir. Shular ichidan “Hadis ilmida amir al-mo‘miniyn” degan sharafli nomga sazovor bo‘lgan Imom al-Buxoriy alohida e’tiborga molik buyuk olimdir. Uning to‘liq ismi Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil ibn Ibrohim ibn al-Mug‘iyra ibn Bardazbeh al-Juafiy al-Buxoriy bo‘lib, u hijriy hisobda 194 yil shavvol oyining 13-kuni (810 yil 20-iyul)da Buxoro shahrida tavallud topgan. Boshqa ko‘pgina olimlardan farqli o‘larоq al-Buxoriy tug‘ilgan sana aniq ko‘rsatilishiga sabab shuki, uning otasi Ismoil o‘z davrining ilmli odamlaridan bo‘lib, o‘g‘lining tug‘ilgan kunini o‘z qo‘li bilan yozib ketgan qog‘oz zamondosh olimlar ixtiyoriga yetgan va shu xususda ham uning aniqligiga hech shubha yo‘q. Al-Buxoriy yoshligidayoq otasi vafot etib, onasi tarbiyasida o‘sgan. U yoshligidan aql-idrokli, o‘tkir zehnli va ma’rifatga havasi kuchli bo‘lib, turli ilm-fanlarni, ayniqsa, hadis ilmini zo‘r qiziqish bilan egallaydi. Manbalarda ko‘rsatilishicha, u o‘n yoshidan boshlab o‘z

yurtidagi turli rivoyatchilardan eshitgan hadislarni, shuningdek, Abdulloh ibn al Muborak va Vakiy kabi olimlarning hadis to‘plamlarini mutolaa qilib, yodlagan, ustozи Shayx Dohiliy bilan hadis rivoyatchilari haqidagi qizg‘in bahslarda qatnashgan. 825 yili o‘n olti yashar al-Buxoriy onasi va akasi Ahmad bilan Hijozga qarab yo‘l oladi, muqaddas shaharlar Makka va Madinani ziyorat qilib, olti yil Hijozda yashab, hadis ilmidan o‘z bilimini yanada oshirish maqsadida o‘sha paytda ilm-fanning yirik markazlaridan hisoblangan Damashq, Qohira, Basra, Kufa, Bag‘dod kabi shaharlarda yashab, u joylardagi mashhur olimlardan hadis bilan bir qatorda fiqh ilmidan ham ta’lim oladi, yirik olimlar davrasida ilmiy bahslaru munozaralarda qatnashadi va ilm toliblariga dars ham beradi.¹ Imom al-Buxoriy hayotining ko‘p qismi xorijiy ellarda, musofirchilikda o‘tadi. Bu haqida uning o‘zi: “Misr, Shom, Mesopatamiyaga ikki martadan, Basraga to‘rt marta borganman. Hijozda olti yil yashaganman, Bag‘dod va Kufa shaharlariga necha marta borganim hisobini bilmayman²”, degan ekan. U safar chog‘ida ham, bir shaharda muqim turganda ham ilmini oshirish borasida tinimsiz ishlar, to‘plagan hadislarini oqqa ko‘chirar edi. Muallifning yozishicha, Bag‘dodda istiqomat qilgan paytda ko‘pincha oyning nurida ijod qilib, qorong‘i kechalarda sham yorug‘ida kitob yozar ekan. Imom al-Buhoriy ozg‘in va o’rta bo‘y kishi bo‘lganlar. U kishi dunyodan zoxid bo‘lib o’tganlar. Otalaridan o’zlariga qolgan ko‘p miqdordagi molni sadaqa qilar edilar. Imom al-Buhoriy juda ham oz taom yeganlar. Ba’zi vaqtarda kuniga ikki yoki uchta bodom yegan kunlari ham bo‘lgan. Imom al-Buhoriy o’zlari aytadilar: “G’iybat xaromligini bilganimdan buyon biror kishini g’iybat qilganim yo‘q”. Imom al-Buhoriyning shogirdlari nihoyatda ko‘p bo‘lgan.

Mo‘tabar manbalarning guvohlik berishicha, ulug‘ olim hayotining bosh kitobi bo‘lmish “Al Jome As-Sahih”dan uning bevosita rahbarligida 90 ming kishi ta’lim oldi. Imom al-Buhoriy yosh bolalik chog‘idayoq shogirdlarining sanog‘i yo‘q edi. Yoshlik chog‘ida Axli Basradan ma’rifat toliblari u kishining ortidan yugurar edilar. Xattoki majbur qilib yo‘l ustiga o’tqazib olib hadis so’rashar edi. O’sha majlislarda minglab odamlar jamlanar edi. Ularning ko‘pi hadislarini odamlar yozib oladigan shayxlar bo‘lar edi. Imom al-Buhoriy bo’lsa hali yosh bola edi. Termizlik mashhur muhaddis Abu Iso at Termiziy al-Buxoriyga ham shogird, ham safdosh hisoblanib, ularning o‘zaro munosabatlari ibratli bo‘lgan. Uzoq yillar Sharqning turli-tuman mamlakatlariga safar qilgandan keyin umrining oxirlarida al-Buxoriy besh (863 – 868) yil Nishopurda yashab, madrasada hadis ilmidan dars bergan. O’sha paytda Nishopur musulmon Sharqidagi eng yirik ilmiy markazlardan biriga aylanganligi sababli ko‘p mashhur olimlar shu shaharda to‘plangan edilar. Al-Buxoriyning at-Termiziy bilan uchrashuvi ham Nishopurda yuz berib, diyormizdan chiqqan ikki mashhur muhaddis o‘rtasida unutilmas, qizg‘in ilmiy bahslar, ko‘pdan ko‘p ijodiy, do‘stona uchrashuvlar

¹ <https://www.bukhari.uz/?p=25469&lang=oz>

² https://uz.wikipedia.org/wiki/Imom_al-Buxoriy_saboqlari

bo‘lib o‘tadi. At-Termiziyning yozishicha, u o‘z asarlari uchun ko‘p ma’lumotlarni al-Buxoriy bilan uchrashuvlaridan olgan. Shu bilan birga al-Buxoriy ham at-Termiziyning bilimini yuqori baholab: “Men sendan ko‘rgan foyda sen mendan ko‘rgan foydadan ortiqroq”, deb unga nisbatan chuqur hurmatini bildirgan. At-Termiziy o‘z ustoz va safdoshi al-Buxoriyni butun umri davomida hurmatlab, unga samimiyo sadoqatda bo‘lgan. Arab tarixchisi Shamsuddin az-Zahabiyning (1274–1374) “Tazkirat ul-Hufoz” (“Hofizlar haqida tazkira”) nomli asarida yozishicha, at-Termiziy o‘z ustozining vafoti tufayli qattiq qayg‘uga botib “ko‘p yig‘laganidan hatto ko‘zları ko‘r bo‘lib qolib, uzoq yillar ko‘zi ojiz holda yashadi”. Imom al-Buxoriy nafaqat yirik olim, balki o‘zining go‘zal xulq-atvori, odamoxunligi, muruvvatatliliği, himmatatliliği va beqiyos saxovatliliği bilan boshqalardan tamomila ajralib turgan. U zehni o‘tkirligi va yodlash qobiliyatining kuchliligi bilan ham xalq orasida g‘oyat shuhrat qozongan.

Manbalarda al-Buxoriyning 600 mingga yaqin hadisni yod bilgani qayd qilingan.³ Imom al-Buxoriy xorijdan qaytgach, o‘z vatani Buxoroda ko‘plab shogirdlar va ulamolarga hadis ilmidan saboq berish bilan mashg‘ul bo‘ladi. Ko‘pchilik uni hurmat qilgan. Shunday bir paytda o’sha davrdagi Buxoroning voliysi Xolid Ibn Ahmad Zuxdiy Imom al-Buxoriyga odam yuborib u kishiga manzilga kelib bolalariga “Jome” va “Tarix”dan dars berishini talab qildi. Imom al-Buxoriy uning huzuriga borishdan bosh tortdilar. Voliy yana odam yuborib Imom al-Buxoriydan o‘z bolalari uchun alohida boshqalarni aralashtirmasdan majlis qurishini talab qildi. Imom al-Buxoriy bu gapni ham qabul qilmadilar va “bir qavmni qo‘yib boshqasiga dars o’tish menga to’g’ri kelmaydi”, dedilar. Voliy Xolid ibn Ahmad Zuxliy Imom al-Buxoriyga qarshi Buxoroning Xurays ibn Abulvarqo kabi ahli ilmlaridan yordam so’radi. Ular darhol Imom al-Buxoriyga qarshi bo’xton to’qidilar. U kishini buzuq mazhabda ekanini da’vo qildilar. Voliy Imom al-Buxoriyni Buxorodan chiqarishga amr qildi. Imom al-Buxoriy duosi mustajob-to’xtovsiz qabul bo’ladigan zotlardan edilar. Jonlaridan o’tgani uchun mazkur dushmanlar haqida “Ey Allohim! Menga qasd qilgan narsalarini o’zlariga, avlodlariga va ahli ayollariga ko’rsatgin!” deya duo qildilar. Bir oy o’tmasdan Tohiriyarning amri kelib voliy Xolid ibn Ahmad Zuxliyning urg’ochi eshakka teskari mindirib sazoyi qilindi. Keyin u hajga borish maqsadida yo’lga chiqdi. Bog’dodga yetganida xalifa Mo’tamadning ukasi Muvaffaq ibn Mutavakkil uni tutib qamadi va qamoqda vafot etdi. Xurays ibn Varqo ahli ayolida baloga uchrab, vasfiga til ojiz holatlar boshiga tushdi.

Imom al-Buxoriy Buxorodan chiqib Samarqand tomon yuzlandilar. U kishining Samarqandga yetmay ikki farsax masofadagi Xartang Qishlog’ida qarindoshlari bor edi. U kishi mazkur qarindoshlarinikiga kelib tushdilar. Imom al-Buxoriy kechalari namoz o’qib ibodat qilar edilar. Bir kecha tungi namozdan keyin “Ey Allohim! Bataxqiq, yer yuzi barcha narsasi ila menga tor bo’lib qoldi. Meni o’zinga olgin!” deb

³ https://uz.wikipedia.org/wiki/Sahihi_Buxoriy

duo qilayotganlari eshitildi. Ana shundan keyin bir oy o'tmay Imom Buhoriy vafot topdilar. U kishi vafotlaridan oldin vasiyat qilgan ekanlar. Ya'ni "Meni uch oq kiyim (latta) ila kafanlanglar. Ularning ichida qomiys va salsa bo'lmasin", degan ekanlar.⁴ Abdulvohid ibn Odam Tavovusiy aytadi: "Rasululloh sollallohu alayhi vasallamni tushda ko'rdim. U zot bilan bir to'p sahobalari ham bor. U zot bir yerda turibdilar. Salom bergen edim, alik oldilar. "Ey Allohnning Rasuli! Bu turishingiz boisi ne!" dedim. "Muhammad ibn Ismoil Buhoriyni kutib turibman", dedilar. Bir necha kundan keyin uning vafoti haqida xabar keldi. Nazar solsak, men Nabiy sollallohu alayhi vasallamni ko'rgan soatda vafot etgan ekan". Imom al-Buxoriy shanbagaga o'tar kechasi, Ramazon bayramiga o'tar kechasi Xufton namozi paytida vafot etdilar. Ramazon bayrami kuni, Peshin namozidan keyin, Shanba kuni, ikki yuz ellik oltinchi hijriy sananing birinchi Shavvol kuni Xartangda dafn qilindilar. Imom al-Buxoriy bu dunyoda o'n uch kuni kam oltmish ikki yil hayot kechirganlar.

Ushbu maqolada biz Imom al-Buxoriyning yashagan hayoti va hayoti davomida yozgan hadislari haqida qisqacha tanishdik. Shuni ham aytib o'tish kerakki Imom al-Buxoriyning shogirdlari, ustozlari va uning yashagan davridagi ulamolar haqida ham so'z olib borilgan. Imom al-Buxoriyning hadislari bizga hayotimiz davomida juda ko'p kerak bo'ladi deb o'ylayman, chunki u kishining hadislarida tarbiyaviy jihatlar juda ko'p.

Foydalilanigan adabiyotlar ro'yxati

- Имом Бухорий таърифи. –Самарканд: Имом Бухорий халкаро марказ нашриети, 2019.-Б. 14.
- Ulmasjonovich K. S. Mystical and philosophical foundations of human interaction (based on the teachings of makhdumi Azami Kasani) //European Scholar Journal. – 2021. – Т. 2. – №. 11. – С. 45-48.
- Samatov K. Issues Naqshbandi teaching peace and harmony in society //Theoretical & Applied Science. – 2016. – №. 2. – С. 175-179.
- Samatov, K. (2016). Issues Naqshbandi teaching peace and harmony in society. Theoretical & Applied Science, (2), 175-179.
- <https://www.bukhari.uz/?p=25469&lang=oz>
- https://uz.wikipedia.org/wiki/Sahihi_Buxoriy
- https://uz.wikipedia.org/wiki/Sahihi_Buxoriy
- https://islom.uz/view/imom-buhoriining-siiratlari

⁴ <https://islom.uz/view/imom-buhoriining-siiratlari>